

Ona yurti - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KINO PALATASI
INV. M.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 18 - 24-iyul N:29 (66518)

Aziz qizlar, orangizda o'zicha qo'shiq kuylab, raqsga tushishni yoqtirmaydiganlar deyarli yo'q bo'lsa kerak. Balki bu holat bolalarcha havasdir. Chunki o'zim ham bolaligimda shunday bo'lgan ekanman. Ovozimning boricha qo'shiq aytaverishimdan nafaqat aka-opalarim, hatto qo'shnilarimiz ham bezor bo'lib ketishgan ekan...

Lekin siz suratda ko'rib turgan Sevinch ismli qizaloqdagi san'atga bo'lgan ishtiyoq, o'tkinchi emas ekan. 4 yoshidan raqsga tusha boshlagan Sevinch Ismoil qizi hozir hammaga mashhur bo'lib ketgan «Tantana»ning eng faol a'zolaridan biridir. Sevinch hozircha qo'shimcha ta'lim musiqa maktabida fortepyanodan ham tahsil olyapti. Maktabdagi o'qishlari chakki emas, 4-sinfni a'lo baholarga tamomladi.

— Yaqinda 1-Iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan konservatoriyaning katta zalida o'zimiz mustaqil konsert berdik, — deydi Sevinch sevinchdan ko'zlari porlab. — Buning uchun fortepyanodan saboq beradigan ustozim

CHEHRASIGA SEVINCH YARASHGAN SEVINCH

Tetel Alla
Borisovnadan, «Tantana»dagi ustozlarim Fotima va Zuhra, hamda Nigora opalarimdan behad minnatdorman.

Sevinch ulg'aygach, Guli Hamroyeva singari ko'plab shogirdlar yetishtirgan taniqli balerina bo'lishni orzulaydi. Buning uchun esa hozirdanoq harakat qilishi, puxta bilim olib, o'z ustida tinimsiz ishlashi lozimligini ham juda yaxshi biladi.

Sevinch, isming jisingga mos bo'lsin, chiroyli yuzingdan tabassum arimasin!

Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.



BIZGA TINCHLIK KERAK, ODAMLAR!

Kechalari uyg'onib ba'zan,
Uzoq-uzoq o'yga tolaman.
Shirin orzu, totli xayollar,
Og'ushiga tushib qolaman.

Hayot go'zal, turmush farovon,
Osudadir uzun kechalar.
Tinch, beg'ubor osmon ostida,
Orom olib uxlarni nechalar.

Go'dagim ham orom olmoqda,
Termulaman, to'ymayman aslo.
Lekin shu dam dahshatli o'ylar,
Xayollarim to'zg'itar ammo:

Agar hozir bo'lsa-chi urush,
Ajal yog'sa ko'kdan beomon.
G'anim bizga qilsa-yu yurish,
Keksa-yoshni qirsa bearmon.

Zahar bo'lsa hayotning boli,
G'am-g'ussaga aylansa, nahot.
Nima kechar insonlar holi,
Ne qilarkin go'daklar, hayhot?!

Andijon va Beslan dahshati,
Ko'z o'ngimdan o'tar birma-bir.
Terrorchining qonxo'r vahshati,
Vujudimni titratir zir-zir.

«Yo'q-yo'q» deya shivirlar labim,
Urush bo'lmas, bo'lmas hech qachon!
Urushlarsiz tinch zamonada,
Osoyishta yashasin jahon!

Inson degan sharaflil nomni,
Inson bo'lib oqlang, odamlar.
Bizga tinchlik kerak, urushning,
Olovini yoqmang, ODAMLAR!

FERUZA.

Noming o'chsin, terror!



Har yili ta'til kunlarimda Andijon shahridagi qarindoshlarimiznikiga borib turardim. Shahar ko'chalarining ko'rkamligi-yu mahallalarning obodligiga, suvining zilolligi-yu havosining musaffoligiga, odamlarining mehmondo'stligi-yu bag'ri kengligiga juda havas qilardim...

Yaqinda yana Andijonga bordim. Bu safar shahar ko'zimga allanechuk boshqacharoq, jozibasini

«BARCHAGA BAROBAR, YURAGI KENG»

biroz yo'qotgandek ko'rindi. Go'yo uning bag'rini, ko'ksini yaralashgani uchun insonlardan xafadek edi. Yo'q-yo'q, adashdim, insonlardan emas, qabih niyatli kimsalardan. Tinchligimizni, mustaqilligimizni ko'rolmay, turli yo'llar bilan bizni tahlikaga solmoqchi bo'layotgan bunday g'alamislarni insonlar safiga qo'shib bo'lmaydi.

Necha-necha buyuk allomalarimiz, aziz-u avliyolarimiz o'tgan bu muqaddas makon tuprog'ini ko'zga surtish o'rniga, uni toptasalar, qonga belasalar?! Murg'akkina qalbimda terrorchilarga nisbatan nafrat uyg'ondi.

Shunda tushkun qalbimga bir narsa taskin berdi: bu ham bo'lsa shaharda avvalgidek sokin hayotning o'z iziga tushganligi, hamda andijonliklarning kayfiyati edi. Ularni tahlika va sarosimaga tushmay, turmush tashvishlari bilan ovora bo'lishayotganini, shaharni yanada ko'rkam va obod qilish istagi bilan yonayotganlarini ko'rib, quvondim. Ayniqsa, 70-75 yoshlar atrofidagi bir otaxonning nabirasini yoniga olib, mevali daraxtlarni sug'orayotganini, tagini yumshatayotganini ko'rib, ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Tilimga esa quyidagi misralar yog'ilib kelaverdi:

Shunchalar maftunkor go'zalliklar-u
Beg'ubor insonlar makoni, sensan.
Do'stni, g'animni ham bag'riga olgan,
Barchaga barobar, yuragi kengsan.

Bejizmas Boburning talpinganlari,
Uning she'rilarida yashaysan hamon.
Ko'rk-u tarovating qayta tiklagin,
To abad yashnagin, so'lim Andijon!

Ma'fura JAMOLIDDINOVA,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 29-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.

Hozirgi kunda ko'cha-ko'yda, bekatlarda «Imtihon shpargalkalarini sotaman», degan yozuvlarga ko'zingiz tushadi. Ba'zilar esa bunday «beminnat yordamchilar»ni qo'llariga ushlab olib, o'qishga kirish yoshidagi o'g'il-qizlarga pullash payida yurishibdi. Afsuski, oramizda ularni falon pulga sotib oladigan yoshlar ham uchrab turadi. Bu xususda kim qanday

SHPARGALKA YOKI BILIM?


fikrda bilmadim-u, shaxsan men shpargalkalarga mutlaqo qarshiman. Xo'sh, aytinchilari ular bizga nima beradi, bilimmi?! Aksincha, fikrimizni chalg'itadi, ularga ishonib bilganlarimiz ham yodimizdan ko'tarilib ketadi, deb o'ylayman.

Aziz tengdoshlarim, biz Beruniy, Behbudiy, Ibn Sino, Navoiy kabi olimu fuzalolarning avlodimiz. Ularga munosib avlod bo'laylik. Har birimizning mustaqil fikrimiz bo'lsin. Axir bizni boshqa mavjudotu maxluqotlardan ajratib turuvchi jihatimiz ham ongliligimiz, fikrlashimizda-ku.

Biz, XXI asr yoshlari - yurtning kelajagimiz. Shpargalkalarga tayanib olingan bilimimiz bilan jahonga chiqa olasizmi? Albatta yo'q! Shunday ekan, faqat o'z bilimimiz, kuchimizgagina ishonaylik.

Barchamizga omad yor bo'lsin, aziz bitiruvchi tengdoshlarim.

Feruza YUSUPOVA,
Tosh DSHI qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyi
301-«A» guruh o'quvchisi.



Uzum haqida gap ketganda albatta, bizning Parkentimiz uzumlari tilga olinadi. Chunki tumanimizda biror bir xonadon yo'qki, hovlisida uzumi bo'lmasa...


Bizning ham kattagina uzumzorimiz bor. Salkam 25 yildirki onam «Mehnat» agrofimasida 1 gektar maydondagi uzumni parvarishlab keladilar. Men ham bo'sh vaqtlarimda onamga ko'maklashaman. O'tgan yili uzumdan yaxshigina daromad oldik. Albatta bunday daromad olishning o'zi bo'lmaydi. Yil bo'yi uzumni 4-5

marotaba sug'oramiz, ustini ochamiz, sim bog'ozlarga boylaymiz, xomtok qilamiz, kesamiz, ko'mamiz... Xullas, qishda biroz dam olmasak, yil bo'yi uzumzordan chiqmaymiz.

Uzumni yaxshi ko'rganim bois, uzumchilik haqidagi kitoblarni ham o'qib turaman. Jumladan, A.A.Ribakov, N.V.Nirkov, S.A.Ostrouxovaning «Uzum va bog' hosildorligini oshirish»

kitobini o'qib chiqdim. Dorivor o'simliklar kitobini o'qib esa quyidagilarni bilib oldim: uzum tarkibida 20 foiz qand, 2,5 foiz organik (olma, vino, oksolat va solisilat) kislotalari, B va S darmondorilari, hamda

PARKENTDA UZUM PISHDI



juda ko'plab foydali elementlar borligini bilib oldim.

Abu Ali ibn Sino bobomiz uzumni buyrak, qovuq, ichak kasalliklarida og'riq qoldiruvchi, bargi va jingalagini bosh, ko'z, quloq va

me'da kasalliklarini davolash uchun qo'llagan.

Quriltgan barg shirasi bilan ich ketishi, poya va shoxlari kuli bilan teri kasalliklarini davolagan ekanlar.

Xalq tabobatida uzumdan buyrak, qovuq, jigar, yurak, me'da-ichak kasalliklari, bavoil, podagra kabi ko'plab kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Uning shox-shabballari o'tin qilinadi. Mevasidan mayiz, murabbo, shinni, bargidan ovqat qilamiz. Ezilgan uzum po'choqlarini chorva mollari uchun ozuqa sifatida ishlatamiz. Ko'rib turganingizdek, uzumning chiqitga chiqadigan qismi yo'q ekan.

Sentabrning oxiri, oktabrning boshlarida barcha uzumlar g'arq pishadi. Maqolamni «Parkentda uzum pishdi» deya nomlaganimga esa sira ajablanmang. Darhaqiqat, bizda uzumning «chillaki» deb nomlanuvchi navi, har yilgidan erta pishdi. Bunga yozimizning issiq kelgani sabab bo'ldi chog'i...

Xullas, barchangizni Parkentimizga, uzumxo'rlikka taklif etaman.

Lola TURDIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani,
Shampan qishlog'idagi 18-o'rta maktab o'quvchisi.

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 78-maktabda bolalarga saboq berib kelayotgan ustoz Abdulla Saidovni shogirdlari juda yaxshi ko'rishadi. Chunki tog'larga tez-tez ovga chiqib turadigan muallim ularga qiziqarli hikoyalar so'zlab beradi-da.

Yaqinda Abdulla aka tahririyatimiz mehmoni bo'ldilar. Bizga ham o'zlari yashab turgan tumanning Qo'ytosh, Qoraqush, O'gat va Baxmal tog'lari haqida so'zlab berdilar. Ayni yozning jazirama issig'ida Osmonsoy kengliklarida pishib yotgan pista, bodom va dorivor g'iyohlar haqida ham zavqlanib gapirdilar. Abdulla akaning ovchi do'sti Qurbbon amakidan eshitgan hikoyasini sizga ham ilindik, aziz bolajonlar.

QURBON AMAKINING XATOSI

Tog'-u toshlarda bo'ri, yovvoyi cho'chqa, tulki va quyonlar behisob. Qarchig'ay, qoraqarg'a, so'fiqush, g'azalay, kaklik va bulbul kabi qushlar ham juda ko'p. To'da-to'da bo'lib yurgan jayralarni aytmaymizmi?

Baxmal tog'larida eng ko'p tarqalgan hayvonlardan biri ayiqdir. Ular inson qadami etmaydigan baland va notekis xarsang toshlar oraliqlariga makon qurishgan. Bizning tog'larda qo'ng'ir ayiqning ko'kimtir va mallarang turlari ko'proq uchraydi.

Qish chillasi hukm surayotgan kunlarning birida, qurigan archa shoxlarini terish uchun toqqa borgandim. Uyg'a qaytarkanman adashib qolgan ayiqchaga duch kelib qoldim. Oyog'im tagidan chiqqan tayyor o'ljani darhol xurjunimga soldim-da, uyimga ravona bo'ldim. Ayiqchani ko'rgan nevaralarim o'zlarida yo'q shod edilar. Bostirmaning bir chetiga yangi «mehmon» uchun joy hozirladim. «Aziz mehmon»ni sergo'sht suyak, meva va shirinliklar bilan siyladik. Nabiralarim uni «Shertoy» deb nomlashdi. Vaqt o'tgani sayin, uning oyoq panjalari yiriklashib,

tirnoqlari o'tkirlasha bordi. Bora-bora Shertoy qo'shni bolalarga ham ko'nikib ketdi...

Bir kuni Shertoyini odamlar bilan g'ayjumi o'yingohga olib bordik. U

Ona mehri

xursand bo'lib, bolalar ortidan lapanglab yugurar, g'aroyib qiliqlari bilan barchani hayratga solardi. Kichkintoylar bergan pecheniy, konfetlarni tap tortmay, paqqos tushirardi...

Hovlimiz tog' yonbag'irlarigacha cho'zilib ketgan. Bir kuni bog'imiz yaqinidagi tepalikda devqomat qo'ng'ir ayiq paydo bo'ldi. Ona ayiq bolasining hidini sezganmi, bu yerda tez-tez ko'rinadigan

bo'lib qoldi. Bezovtalanayotganini sezdirish uchun atrofga alanglab, beo'xshov g'ingshir edi. Alamzada ona ayiq bir safar bog' oralab kelib, qiyg'os meva tugayotgan daraxtlarga osilib, shoxlarini sindirib yubordi. Gilos va o'riklarni yer bilan bitta qilib to'kib tashladi. 15-20 kunlardan so'ng yana shu



hol takrorlandi. Xullas, bog'imizdagi notinchlik hammamizni tashvishga solib qo'ydi...

Bir kuni tong pallasi ko'chaga chiqsam, mendan uch qadam narida ko'zlari g'azabga to'la ona ayiq turibdi. Shoshib qolib, darhol miltig'imni ko'tardim. Sezgir ayiq esa boshi bilan turtib, qo'lidagi miltig'ini uchirib yubordi. Keyin bolasini oldiga solib, gavdasiga yarashmagan tezlik bilan bog'dan chiqib ketdi. Bir pasda hovlida g'ala-g'ovur boshlandi. Bu holdan xabar topgan qo'ni-qo'shnilar qo'llariga ilingan narsalarni olib, tog'tomonga ketishdi.

Ammo ancha olislab ketgan onabola ayiqlarga yetolmadilar. Sababi, ona ayiq tepalikdan sandiqday-sandiqday tosh bo'laklarini ko'chirib, ular tomonga uloqtira boshlagandi. Men o'z xatoimni tushunib, afsus chekdim. Shundan buyon darg'azab ona ayiq bog'imizga boshqa kelmadi.

Xurshida BOYMIRZAYEVA
yozib oldi.

Jajji chempion

Buxoro shahrida sportchilar oilasi talaygina. Aliyevlar oilasini ham shunday atashadi. Oila boshlig'i Saidmuhsin aka Aliyev O'zbekiston chempioni, shashka bo'yicha mohir sport ustasi. Uning farzandlari Gulsumbegim va Saidqosim ham

UKAMNING YUTUG'IDAN QUVONDIM

O'zbekiston va Markaziy Osiyo sport musobaqalarining qatnashchilari. Ayni ta'til kunlarida ham ularning bo'sh vaqtlari shaxmat-shashka taxtasi atrofida o'tyapti. Sportga oid turli kitoblarni o'qiyaptilar...



Shu yilning bahori opa-uka uchun juda omadli keldi. Ular Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan yosh shashkachilarning jahon birinchiligida ishtirok etib, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar bellashuvida salmoqli natijalarni qo'lga kiritdilar. Klassik usuldagi uchrashuvda Gulsumoy 4-o'rin, Saidqosim esa 3-o'rin sohibi bo'lishdi. 15 daqiqalik tezkor bellashuvda ham ular faollikni boy bermadilar. Gulsumoy 2-o'rinni egallab, kumush medal sohibasiga aylandi. Musobaqaning «eng jajji ishtirokchisi», deya tanlangan 9 yoshli Saidqosim esa 1-o'ringa loyiq topildi.

Jahon chempioni Saidqosim Aliyevni kutib olishga oshiqqan ota-onasi, ustozlari, yaqinlari uni g'alaba bilan samimiy qutlashdi. Sinfdozlari unga havas-la, boqishdi.

Bu jajji chempion kim bo'ldi ekan-a, deysizmi? U mening ukajonim bo'ladi. Yuz-ko'zlaridan o'pib, tabriklab, quvonchiga men ham sherik bo'ldim.

Iroda ORIPOVA, Buxoro shahri

«Istiqlol umidlari» to'garagimizning yaxshi bir an'anasi bor: har galgi mashg'ulotimizni biror-bir mavzuga bag'ishlaymiz. Mavzularni esa o'quvchilarning o'zlari tanlaydilar. O'tgan haftada bo'lib o'tgan mashg'ulotimizga qizlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, kiyinishi, qo'yingki, hamma jihatlari mavzu bo'ldi. To'garagimiz a'zolarining bu boradagi mulohazalaridan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilyapmiz. O'qib, sizlarda ham qiziqarli fikrlar, bahs va munozaraga chorlovchi mushohadalar tug'lsa, bizga yozib yuborishni unutmang.

To'garak rahbari Feruza JALILOVA.

Fotima HAKIMOVA,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Oybek nomli
14-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi:

«HAKAM»LARGA JUDA YOQDI

Maktabimizda «Nafosat» nomli qizlar guruhi tashkil qilingan. Uni tashkil qilishdan asosiy maqsad – qizlarimizning biror bir kasb egasi bo'lib, hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish, uy bekasi bo'lishga tayyorlash va eng muhimi, ular orasidagi ayrim muammolarni o'zaro, qizlar davrasida hal qilishdan iborat edi. Klubimizga Ma'furat opa Arifjonova rahbarlik qiladilar. Shu bilan



birga boshqa ko'plab ustozlarimiz ham bizlarga qimmatli maslahatlarini berib kelishmoqda. Haftaning har payshanbasida maktabimizning barcha qizlari ishtirokida «qizlar majlisi» o'tkazamiz. Ilk majlisimizda «Eshonguzar» fuqarolar yig'ini, Xotin-qizlar uyushmasi raisi Naima opa Badalova so'zga chiqib, klubimizning tashkil etilgani bilan qizg'in tabrikladilar. Klub mashg'ulotlari mavzusini tanlashda yana nimalarga e'tibor berishimiz haqida maslahatlar berdilar.

Yozgi ta'til kunlarimiz klub mashg'ulotlarida olgan nazariy bilimlarimizni amaliyotda mustahkamlashimiz uchun juda qulay palla. Ustozlarimizdan o'rgangan taomlarni, shirinlik va pishiriqlarni mustaqil tayyorlab ko'ryapmiz. Hakamlarning kattasi ota-onamiz, oila a'zolari uka va singillarimiz bo'lishyapti. Boshqalarni bilmadimu, mening tayyorlagan taomlarim hammaga birdek ma'qul bo'lyapti va menga shuncha narsalarni o'rgatgan ustozimizdan minnatdor bo'lishyapti.

Ma'fura JAMOLIDDINOVA,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 29-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi:

QIZ BOLAGA O'QISH SHART EMASMI?!

Maktabni tamomlagan qizlari bor oilalarda hozir bir xil muammo ko'ndalang turibdi: ularni o'qitish yo o'qitmaslik. Kimlardir, qiz bolalar ham o'qimishli, jamiyat uchun nafi tegadigan insonlar bo'lishi kerak, deb hisoblashadi. Boshqalar esa: «Qiz bolaning o'qishi shart emas. Qaytaga ko'cha ko'rib, yomon yo'lga kirib ketadi. Hali qanday xonadonga kelin bo'lib tushishini bilmaysiz-ku. O'z sohasi bo'yicha ishlatishsa xo'p-xo'p, ishlatishmasa-chi?», – deya fikrlashadi.

Xo'sh, nima uchun qiz bola o'qimasligi kerak? Uning aybi nimada? Shu haqda dugonam bilan suhbatlashayotgandik, u menga mahallasida bo'lib o'tgan bir voqeani aytib berdi. Mahallasidagi ikki dugona bir sinfda o'qishar ekan. Onalari ham bir-biri bilan yaqin ekanlar. Qizlardan birining ismi Zulayho, ikkinchisniki Go'zal ekan. Go'zal Zulayhoga nisbatan yaxshi o'qir, ilmga chanqoq qiz ekan. Xullas, ular maktabni bitirishibdi. Go'zal maktabda yaxshi o'qigani bois, kollej talabasi bo'libdi. Zulayho esa o'qishga kira olmabdi. Shunda Zulayhoning onasi:

– Hali ko'ramiz, qayergacha borarkin? Qizi yomon yo'lga kirib ketganda ko'zi ochiladi bularning. Qiz bolaning o'qishi shart emas. Unga bekalik ham yetadi, – deya Go'zal haqida har xil g'iybat gaplar tarqata boshlabdi...

Bu gaplarga Go'zal ham, ota-onasi ham e'tibor qilishmabdi. Ammo qo'shnisi g'iybatni to'xtatmabdi...

Dugonamning hikoyasi meni ham o'ylantirib qo'ydi. To'g'ri, bunday kalta fikrlaydigan, hasadgo'y insonlar oramizda yo'q emas. Lekin sog'lom fikrlaydigan, qiz bolaning ham o'z orzu-umidlari borligini his qiladigan, ular ham jamiyatning to'laqonli a'zosi ekanligini to'g'ri anglaydigan ota-onalarimiz ko'pchilik ekanligiga aminman. Axir biz ham kelajakda ziyoli inson bo'lib, xalqimizga foyda keltirgimiz, ota-onamiz bergan tuzni oqlagimiz keladi. Kelajakda biror mansab egasi bo'lsag-u, ana shunday insonlar qabulimizga borib qolishsa, aytgan gaplariga uyalib qolishmasmikin? Siz nima deysiz, aziz dugonam?



K.ABDURAZZOQOVA,

Toshkent viloyatidagi 23-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi:

ZAMONAVIY BO'LAMIZ DEB...

Tunov kuni bir dugonam bilan ko'chada ketayotgandik. Qarshimizdan tor shim, juda kalta yubka, qorni ochiq kofta kiyib olgan bir necha qizlar chiqib qolishdi. Ularning ortidan esa yoshi 60-65 lar atrofidagi ikki otaxon kelyapti.

Beixtiyor otaxonlarning gaplari qulog'imizga chalinib qoldi: «Mana bu qizlarni qarang. O'zbek bo'lmasa ham alam qilmasdi. Ota-onasining ko'zi qayerda ekan-a?», degancha boshlarini sarak-sarak qilib kelishardi. Ularga salom berishni ham, bermaslikni ham bilolmay, ko'zimizni olib qochdik. Haligi qizlar uchun biz uyatda qolgandik...



Buvi-buvalarimiz ularga tanbeh berishsa, «hozir zamon yoshlarniki, atlas ko'yag-u do'ppilar hozir modadan qolgan», – deyishadi.

Men ularning kiyinishini muhokama qilayotganim yo'q. Mayli, istagancha kiyinishsin. Lekin meni tashvishga solayotgan bir muammo – ularning o'zbek qizi ekanliklarini unutib qo'yayotganlaridir. Ba'zi qizlarimiz qandaydir tungi diskotekalarga borishni o'zlariga urf qilib olishgan. Go'yo u yerga borishsa, g'am-tashvishlarini unutib, yengil tortishar emish...

Mayli, zamonaviy bo'laylik, lekin bunday behayo kiyimlar bilan emas-da.

Qizlarjon

Gulnoza MUHAMEDOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi

2-o'rta maktabning 10-«A» sinf o'quvchisi:

Quvnoq yozning kelgani yaxshiku-ya, biz qizlarga biroz tashvish keltirishi chatoq-da. Qanday tashvish, deysizmi? Yozning jazirama issig'i ayrim qizlarimizning nafis yuz terilariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Oftobda qorayib, yuzlariga husnbuzar va sepkillar toshib ketadi. Shunday holatlarga duch kelgan dugonalarimga tajribamdan o'tgan ayrim maslahatlarimni bermiqchiman. Bu borada tibbiyot fanining asoschisi Ibn Sino bobomiz ham quyidagicha maslahatlar qoldirganlar:

1. Tuxumning oqi yuzga surtilsa, teri qorayishining oldi olinadi. Sarig'i qovurilib, asal bilan ezilsa, sepkil va qorayishga qarshi yaxshi muolajadir.
2. Bug'doy va uning uni yuzni dog'lardan tozalaydi.
3. Yuz terisi zira suvi bilan yuvilsa, u tiniq bo'ladi.
4. Achchiq bodom esa sepkilga qarshi qo'llanilib, ajinlarni ham yozib yuboradi.
5. Sutga shakar qo'shib ichilsa, terining rangini chiroyli qiladi.
6. Qovun terini tozalaydi. Urug'i esa sepkil va boshqa dog'larni ketkazadi.
7. Gulsafsarning guli issiq suvga solib, sovigandan so'ng yuz yuvilsa, terini tozalaydi, yaltiratadi va ajinlarni yo'qotadi.

Zamonaviy kosmetologlarimiz ham teri parvarishida bir qancha o'rinli maslahatlar berishadi:

1. Yuzingiz qoraysa, 2-3 dona o'rikni yuvib, yaxshilab ezing va 10-15 daqiqaga yuzingizga surtib qo'ying.
2. Kartoshkani qirg'ichdan o'tkazib, sut qo'shib, husnbuzarlarga surting.
3. Yog'lanib, yaltirab turgan terini limonning bir parragi bilan artish mumkin.
4. Doim sizdan xushbo'y hid kelishini istasangiz atirgul gulbarglari solingan suvga yuzingizni yuvsangiz, uni tarang va silliq qilib qo'yadi.
5. Yuzingizga husnbuzarlar toshib ketsa, ozgina maydalangan kir sovunni suv bilan ko'pirtirib, yuzingizga surting. Albatta foydasini sezasiz.

Mana aziz dugonajonlar, sizlarga bermiqchi bo'lgan maslahatlarim shulardan iborat edi. Ularga albatta amal qilasiz, degan umiddaman. Onalarimiz, buvionlarimiz qo'llab kelgan tabiiy usullarga ne yetsin?..

B.ISAYEVA,

Matbaa kasb-hunar kolleji talabasi:

G'URURIMIZ QAYDA QOLDI?

Kollejimizdagi Sh.Yusupova, O.Qoraboyeva, H.Irismetova bilan yaqindan tanishmasimdan avval ularga juda havas qilardim. Keyinchalik ularning tabiati ancha yengil ekanligini, o'g'il bolalar bilan «gap sotib» darslarga xalaqit berishlarini ko'rib, ulardan hafsalam pir bo'ldi. Ba'zida qayerda ekanliklarini ham unutib qo'yadilar. Qizlarimiz nima sababdan ulardan uzoqroq yurishlarini endi tushunib yetdim. Ularning g'ururi, sharm-hayosi qayda qoldi? Gohida shunday qizlar bilan bir kollejda o'qiyotganimdan uyalib ketaman. Aytishadi-ku, «Do'sting kimligini aytasang, sening kimligingni aytib beraman», deb. Biz haqimizda ham shunday fikrga borishmasin-da, ishqilib...

O'quvchilarning yozgi ta'til kunlarini ko'ngilli o'tkazishlari uchun poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-maktabda «Nihol» nomli sog'lomlashtirish maydonchasi barpo etilgandi. Bu kichik oromgohning ish rejasi 6 sohani o'z ichiga oladi.

O'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda, tadbir va tanlovlar o'tkazishadi.

Ta'lim

maskanimizda ma'naviy-ma'rifiy soha bo'yicha uslubchimiz bilan birgalikda «Prezident farmonlari amalda», «Yurtboshimiz asarlarini o'rganamiz», «Buyuk siymolar», «Davlatimiz yuksalish sanalari» kabi ko'rgazmali burchaklarni tashkil etyapmiz, – deydi maktabning 8-sinf o'quvchisi Nazokat Ahmedova. – O'quvchilarimiz guruhlararo o'zbek milliy o'yinlari, qadimiy urf-odatlar, o'zbekona liboslar tanlovi, «Nihol yulduzlari» musiqiy ko'rik-tanlovi, «Quyoshli yurt bolalari» rasmlar ko'rik tanlovlarini o'tkazishmoqda. Shuningdek, «XXI asr – sog'lom hayot» mavzusida narkotik moddalar,

chekishga qarshi kurash rasm tanlovlarini o'tkazib, giyohvandlikni oldini olish bo'yicha so'rovnomalar olib borishmoqda. «Diniy aqidaparastlik – terrorism asosidir» mavzusida ijodiy ishlar qilyapmiz.

Siyosiy huquqiy

«NIHOL»

sohada esa barcha guruhlarimizda O'zbekiston Respublikasining davlat ramzilar, mustaqillikning asosiy yuksalish samaralari haqida davra suhbatlari, viktorinalar o'tkazilib kelinmoqda. Yaqinda «O'zbekiston – Vatanim mening» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazdik.

Jismoniy tarbiya ustozimiz G'ayrat aka Ismoilov bilan birgalikda sportning barcha turlari bo'yicha musobaqalar uyushtiryapmiz.

Xalqaro faoliyat sohasiga to'xtaladigan

bo'lsam, ushbu soha mutaxassislari BMT va uning «YUNESKO», «YUNISEF» bo'limlari, ularning maqsadlari haqida, urushlar ketayotgan davlatlardagi bolalar hayoti haqida ma'lumotlar berishmoqda. Guruhlaro jahon xalqlari

har shanba kuni hashar uyushtirib, maktabimiz atrofini tozalaymiz. O'g'il bolalarimiz «Mohir qo'llar» ko'rgazmasini tashkil etib, «Yosh tadbirkor» ko'rik-tanloviga puxta tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Biz esa, «Tabiat, chekmasin aziyat» mavzusida insholar yozib, ekologiyaning buzilish sabablarini o'rganamiz. Dam olish kunlarimizning mazmunli, foydali o'tishiga hissa qo'shib kelayotgan ustozlarimiz Nodira Shomansurova, G'ayrat Ismoilov, Feruza Rasulova kabilardan behad minnatdormiz. Tengdoshlarim qatori men ham bu yerda o'tkazilayotgan tadbir va tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'lishga intilayapman.

Ha, ushbu maskanda Nazokat singari faol o'quvchilar ko'pchilikni tashkil qilarkan. Maktab oromgohida ko'ngilli dam olishayotgani Oyxon G'ulomova, Zilola Salimova, Hurziyod Yoqubjonov, Jahongir Oripovning shundoqqina yuz-ko'zlaridan sezilib turardi.

Nuriddin HAYDAROV.



raqslari ko'rik – tanlovi, hamda «Dunyo bolalariga quyosh birdek nur sochsin», deb nomlangan asfaltga rasm chizish musobaqalari mavsum davomida muntazam o'tkaziladi.

Oromgohda dam olibgina qolmay, hunar o'rganib, mehnat qilamiz. Haftaning

Maktabda dam

Dugonam ikkimiz yo'lida ketayotgandik. Beixtiyor bir ayol bilan qizchani suhbat qilg'animizga chalinib qoldi:

– Shahnoza qizim, erta tongdan qayerga oshiqyapsan, deb so'radi haligi onaxon jajjigina ukasini yetaklab



ketayotgan qizchadan.

– Maktabga...
– Iye, ta'tilda ham maktabga borasanmi?

– Biz tahsil oladigan Mirobod tumanidagi 213-maktab qoshida «G'uncha» nomli sog'lomlashtirish oromgohi tashkil qilingan. Ukam ikkimiz o'sha yerda dam olyapmiz...

Qizchani so'zlari bizni ham qiziqtirib qoldi. U yerdagi shart-sharoitlar bilan tanishish maqsadida oromgoh sari yo'l oldik. Chunki shahar ichida joylashgan oromgohlardagi hordiq tog' yon bag'irlaridagidek ko'ngilli o'tmasa kerak, degan tassavvurda edik-da.

Haligi opa-ukalar bilan suhbatlashib, oromgohga qanday yetib kelganimizni ham bilmay qolibmiz. Oromgohda hayot qaynardi. Yana qandaydir tadbir ham o'tkazilayotgan ekan. 1-sinf kichikintoylari tarbiyachilari boshchiligidan ertaklar olamiga «sayohat qilishayotgan» bo'lsalar, sal

narida bir guruh 4-sinf o'quvchilari to'planib, allaqanday mavzuda bahslashishyapti. Yaqinroq borib bilsak, ular KVN musobaqasini o'tkazishayotgan ekan. Yonimizdan bizni turtib yuborgudek bo'lib yugurib o'tgan o'g'il-qizlar esa «Kim epchil-u kim chaqqon?» sport musobaqasi ishtirokchilari ekanlar. Maktabning soya-salqin bog'iga o'rnatilgan o'rindiqlardan joy olgan bolajonlar qo'llarida qog'oz va mo'yqalam. Ular tabiat shaydolari ekanliklari chizgan

haqida to'lqinlanib gapira ketdi.

– Tarbiyalanuvchilarimiz asosan 1–4-sinf o'quvchilaridir. Ertalab soat 9 da bolajonlarni qabul qilib olib, peshingacha ularni zeriktirmaslikka harakat qilamiz. Sport bellashuvlari, qizlar davrasi, viktorina va savol-javoblar uyushtiramiz. Muntazam faoliyat ko'rsatayotgan yosh rassomlar va gul yasash to'garaklari ham har kuni bolajonlar bilan gavjum bo'lyapti. Haftasiga 3 marotaba kichikintoylarimizni «Zenit» cho'milish maskaniga olib boramiz. Chunki suzish bolalar salomatligi uchun juda foydalida...

Nazarimda oromgohimizda dam olish bolajonlarga juda yoqdi chog'i, kun

sayin ularning soni ortib boryapti. Jajji uka va singillarini, hatto qo'shnilarini ham yetaklab kelishyapti...

Aziz bolajonlar, yozning issiq kunlarini tog' yonbag'irlaridagi so'lim oromgohlarda o'tkazishga ne yetsin?! Ammo buning imkonini bo'lmasa-chi? Hecham xafa bo'lmang, shaharda ham miriqib hordiq chiqarsa bo'ladi. Buning uchun xohish bo'lsa bas. Qolaversa, sizning ta'til kunlaringizni serzavq va maroqli o'tkazish istagida yonayotgan mutasaddi insonlar bor. Ma'naviy dam olgan inson ma'naviy sog'lom bo'ladi, degan ekan bir donishmand. Shaharda qolgan bolajonlarimizning ma'nan sog'lom bo'lishlariga o'z hissalarini qo'shishayotgan bunday insonlarga rahmatlar aytgimiz keldi.

Noila ZOKIROVA,
Nargiza JALILOVA.

XOHISH BO'LSA BAS...

rasmlaridan ham ko'rinib turardi. Qay biri mavjlanib oqayotgan dengizni, unda suzib yurgan baliqlar rasmini chizsa, boshqasi o'z rasmida

arg'imchoq solib uchib kelayotgan turnalarni aks ettiryapti. Keyin bilsak, ular «Onajonim tabiat» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazishayotgan ekan.

– Oromgohimizga xush kelibsizlar, – deya bizga peshvoz chiqdi bolalarning sinf rahbari Robiya opa Mamatqulova.

Maqsadimizni anglagach, oromgohdagi shart-sharoitlar

«BO BO'STON SANNADA GUL KO'P, CHAMAN KO'P...»

Hazrat Navoiy qalamiga mansub ushbu satrlar, garchi she'riyatga aloqador bo'lsa-da, uni to'g'ridan-to'g'ri nabotot olamiga berilgan ta'rif deyishimiz ham mumkin. Darhaqiqat, yer yuzida sarxil gullar mavjud, ularning ayrimlari parvarishlanadi, ayrimlari esa yovvoyi holda o'sadi. Bu gullarni nomma-nom sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Sifatlarini sarhisob qilish undan-da mushkul. Har gulning o'z isi bor, I l l o ,

o'ziga xos yashash tarzi.
zarpechak ham – gul! Ammo u qadami yetgan joyni quritadi:

Nabotot

yo'lida uchragan niholga chirmashib, uni yakson etadi. Shuning uchun ham odamlar bu o'simlikni ko'ringan joyda yulib tashlashadi. Yovvoyi zarpechak bilan bir qatorda turadigan orxideyaning maqomi va odamlarning unga bo'lgan munosabati o'zgacha. Masalan, qadimgi Xitoyda orxideya g'alabalar hamda orzularning ro'yobga chiqishi belgisi sifatida qadrlangan. Konfutsiy uni «shohlarga munosib gul» deb atagan. Yevropada bu gulni chiroyi uchun emas, balki ta'mi uchun yaxshi ko'rishgan: mehmonlarga «bletsiya verkunda» deb tanishtirishgan. Afsonaviy bu gul daraxtlarning o'zagida va shoxlarida o'sadi; uning ildizi ochiqda osilib turadi va to'g'ridan-to'g'ri havodan oziqlanadi. Hatto ingliz olimi Charlz Darvin ham bu gulga maftun bo'lib, unga atab kitob yozgan edi. Bu gul dunyodagi eng qimmatbaho gul hisoblanadi. Masalan fransiyalik oyimchalar uning narxini brilliant bahosi bilan teng qo'yishadi. Orxideya parvarishlash bo'yicha eng yaxshi mutaxassis deb nom olgan kaliforniyalik Rob Terri oranjereyalarida 10–20 ming dollarlik orxideya gullari bor. Dunyoda har yili 7 milliard

dollarlik orxideya savdosi amalga oshiriladi. Shuningdek, butun dunyoda bu gulni asrab avaylash, qo'riqlash zarurati tug'ilgan. U 1973-yili 120 mamlakat ishtirokida imzolangan xalqaro konvensiya shartlari bilan muhofazalangan.

«Fikr-o'suvchan» degan edi akademik shoirimiz G'afur G'ulom. Agar zarpechak va orxideyani qiyoslab, yuqorida keltirilgan misollarimizni to'g'ridan-to'g'ri odamlarga ko'chirib, fikrlarimiz yanada kengroq ko'lam kasb etganini ko'ramiz. Bu yog'i endi o'zingizga havola...

Aziza XALILOVA,

Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasining II-«D» sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar! Yaqinda Zomin tumanida bo'lib o'tgan respublika yosh ijodkorlarining seminar-tanlovi mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi, desak aslo mubolag'a emas. Ushbu anjuman, to'qqiz yildan beri ijod gulshaniga kirib kelayotgan navqiron avlod vakillari uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tamoqda. Respublikamizning barcha viloyatlaridan, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan ellik nafardan ziyod yosh shoir-u yozuvchilar ijod namunalari ustozlari va tengdoshlarining nazaridan o'tkazishar ekan, bu yilgi oliy mukofot jizzaxlik yosh shoir Muhiddin Abdusamatga nasib etdi. Farg'onalik O'lmasoy Nishonova, qoraqalpog'istonlik Mashhura Sharipova, surxondaryolik Dilnoza Bobonazarova birinchi darajali mukofotga munosib topildilar. Shu yerning o'zida Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinganlar ham, oliy adabiyot kursiga yo'llanma olganlar ham, hamma-hammasi birdek g'olib edi, nazarimizda. Bu g'oliblik mustaqillik bergan imkoniyat, o'zlikni anglash sharofatidir. Tog'lar bag'rini titratib, o'zbek bolasi ovozini yangradi. Bu ovoz bizning ertangi umidimiz, ishonchimiz, o'zligimizdir. Uch kunlik safar davomida Navoiy avlodlari-yu Bobir izdoshlarini, Zebuniso umidlariyu Nodira orzularini, Zulfiyaxonim siyrat-u sur'atlarining ilk qadamlari namoyish etildi. Axir anjumanda ishtirok etgan yosh ijodkorlarning aksariyati o'zlarining ilk she'riy guldastalarini allaqachon muxlislari hukmiga havola etib bo'lishgan edi-da..

Ezgulik nurini sochib, «O'rikli soyda» yangi tong otdi. Ijod, ilhom tongida umidli tengdoshlaringizdan asrlarga tenglashuvchi asarlar kutib qolamiz.

TOG'LARNI TITRATGAN JARANGLAR. O'ZBEGLAR OVOZI. QARANGLARI..

MAFONAT

Qarshimda kichkina sandiq turibdi,
Bobomdan, buvimdan qolgan bir zamon.
Har kuni ko'raman, bugun negadir,
Xayollarim ketdi, shu sandiq tomon.
Gar kichik bo'lsa-da, sinib ketmaydi,
Ustida, ichida mato ko'tarib.
Bizga ko'p foydasi tegadi, ammo,
O'tamiz gohida turtib, itarib.
Shuncha kuch, bu me'mor san'atidanmi?
Yuk bilan bir joyda turib tolmaydi.
Qarang eh, odamlar, matonatimiz,
Gohi sandiqchalik bo'la olmaydi.

Dilfuda MAHKAMOVA,
Jizzax tumani, JDPI qoshidagi bolalar
litseyining 10- sinf o'quvchisi.

KUFIYSH

Yo'llar uzilmadi qadaming tegib,
Ko'zim derazaga qorishib ketdi.
Soxta yo'lovchilar kirib ko'zimga,
Zulmat cho'mgan dilim yorishib ketdi...

Sendan visolingni qilmayman talab,
Sendan diydoringni qilmayman ta'na.
Ammo shuni faqat tushuntirib ket,
Sening qiyofangga kirganmi hamma?..

Muhiddin ABDUSAMAT,
O'ZMU qoshidagi
Oliy Adabiyot kursi talabasi.

TONG

Vatanimda yana bir tong otmoqda,
Qarang-a, shunchalar puku beg'ubor.
Bu poklik ko'zimga issiq botmoqda,
Ha bu poklik o'zbeklarda bor.
Vatanimda yana bir tong otmoqda,
Qorong'u tunni ortda qoldirib.
Maysalar shudringga yuzin yuvmoqda,
Suv qo'ygan bulutning qo'lin toldirib.
Vatanimda yana bir tong otmoqda,
Oltin rahmatin elga yog'dirib.
Oltin ham asta nurin sochmoqda,
Shurim nuridan ilhomlantirib.
Vatanimda yana bir tong otmoqda,
Bulbullarga kuylarini chaldirib.
Kuyollar qayga qanot qoqmoqda,
Yolg'izgina meni uyda qoldirib.
Vatanimda yana bir tong otmoqda,
Do'zlar, bu baxtdan huzur qilingiz.
Keksalar duoga kaftin ochmoqda,
Yana tong otdi shukur qilingiz.

Nodira YANGIBOYEVA,

Xorazm viloyati, Urganch tumanidagi 47-son Nafis
san'at gimnaziyasining 9-sinf o'quvchisi.

VATAN

Vatan-onam tebratgan beshik,
Men tug'ilgan shu qishloq-Vatan.
Ko'zlarimda kundan-kun singib,
Borayotgan bu tuproq-Vatan.
Tunlar dilga orom baxsh etib,
Onam aytgan allalar-Vatan.
Har tong meni intizor kutib,
Olgan cheksiz dalalar-Vatan.
Quchoq'ida ming yillik muzni,
Asrab turgan Piryax tog'-Vatan.
O'sha tog'ning etaklarida,
Otam ekan bog'u rog'-Vatan.

Axtamqul KARIM,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani.



TUMORIM

Beshigimda tumor bor ekan,
Ko'rib qolib qildim tomosha.
Chetlarida hilol bor ekan,
Bu ne deya qildim xarxasha.
Oyim issiq bag'riga bosib,
Bunda Olloh so'zi bor, dedi.
Ona yerga yo'ldosh hamisha,
Oymomaning o'zi bor, dedi.
Oymomajon-zamin onasi,
Tunda unga alla aytadi.
Erta tongdan Quyosh - otasi,
Uni nurda chulg'ab qaytadi.
Oydin tunda onalar bizga,
Alla aytsa, rohat qilamiz.
Shu olamni anglab, sevsin deb:
Beshiklarga tumor ilamiz.

Dilnavoz SALIMOVA,
Namangan viloyati,
Mingbulok tumani.

QIZG'ALDOQ

Qirda chechaklar bilan,
Aka-singil tutindim.
Topib ber, deb bir qizni
Qizg'aldodan o'tindim.
Qizg'aldog'im, qirmizim,
Yonog'ingdan o'parman.
Sen ochilgan bir tongda,
O'shal qizni toparman.
Orzusi mo'l onamning,
Armonlarin o'ldirib,
Kirib kelar bir malak,
Chimildig'im to'ldirib.
Quyosh kular uyimda,
Boshlanadi bahorlar,
Chechaklarning bazmida,
Aytasizlar yor-yorlar.
Yanga bo'lib, uzatib,
Kelasizlar kelinni.
Qizg'aldog'im, ungacha
O'rganib qo'y, o'lanni.

Shahlo AHROROVA,
Jizzax shahri.

NOVA

Xalqimizning rizqu-ro'zi,
Bug'doy noni, bug'doy so'zi.
Dasturxonning fayzi o'zi,
Buyuk ne'mat o'zingsan, non.
Tandirlarning olovida,
Qalb qo'rimiz qalovida,
Ulug'larning tanlovida,
Aziz ne'mat o'zingsan, non.
Tizzamizga kuch-madorsan,
Har dilga sen mudom yorsan,
Dasturxonda doim borsan,
Qutlug' ne'mat o'zingsan, non.

Nafosat NURMETOVA,
Yangibozor tumani.

TEMUR BOBOM

Falak gardishingda porlagan iqbol,
Millatim farzandin etdi jahongir.
Saltanat yalovin qilmay, deb, zavol,
Kurash girdobida yashadi Temur.
Poytaxt Samarqandni farovon etib,
Firdavsmonandligin ayladi oshkor.
Ko'shku bog'lar qurib, tuzuklar bitib,
Shonimiz jahonga taratdi ilk bor.
Ko'ragon tojdori bobom, bilingiz,
Asrlar osha ham o'lmagay nomi.
Avlodim salomin qabul qilingiz,
Mustaqil o'lkamning sohibqironi.

Gulsanam NARZIYEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumani.

XXX

Tuproqni sachratmang, oh, qattiq bosmang,
Axir siz o'shandan yaralgan bir zot.
Qarang, sizga ta'zim aylab turibdi,
O'zingizni unga qilmang yetti yot.

Avaylab oling-da unga cho'miling,
Suv yuvar u yog'-u bu yog'ingizni.
Tuproqning bir umr achchiq qismati-
U tinmay yuvadi oyog'ingizni.

Oxirda terasiz bor toshingizni,
Eng so'nggi manzilga bosasiz qadam.
Tuproqqa qo'yasiz shu boshingizni,
Afsus, kech anglaysiz, tuproq - bu Vatan.

Umid ALI,
Samarqand viloyatining Samarqand
tumanidan «Bekajon» gazetasi xodimi.





Mohira Sagdullayeva 1992-yilda Toshkentda tug'ilgan. Akmal Ikromov tumanidagi Tasviriy va amaliy san'at

BAXTI BEKAM QIZ

– Yaqinda oromgohga borib bir bolani uchratib qoldim. Keyin esa u bilan tanishib oldik.

Uchinchi marta uni ko'rganimda, qalbimda unga nisbatan qandaydir bir his uyg'onganini his qildim. Uning muomalasi, o'zini tutishi menga juda yoqdi.

– Bu tuyg'uni siz sevgi deb ayta olasizmi?

– Albatta.

– Bu

uchrashuvingiz «bir ko'rishda muhabbat» deb atalsa kerak-da?

(Mohira hazil aralash kulib:)

– Yo'q, uch

ko'rishda muhabbat, desak to'g'ri bo'ladi.

– Bunaqasini endi eshitishim.

Yaxshisi bizga she'rlaringizdan o'qib

bersangiz.

– Marhamat:

Mayliga qalbimni butkul tark eting,

Mayliga unutib, olislab keting,

Mayliga uziling chaman guliday,

Men baribir tanho Sizni sevaman!

Bardoshlarim yetmay Sizni sog'inib,

Ko'zimda yosh qolmay Sizni sog'inib,

Qolsam-da o'rtanib Sizni sog'inib,

Men baribir tanho Sizni sevaman!

Mayliga hayotim to'xtab qolsa ham,

Mayliga do'stlarim mendan tonsa ham,

Sizni kutib umrim bedor o'tsa ham,

Men baribir tanho Sizni sevaman!

– Satrlaringizda «Hayotim to'xtab qolsa ham», degan jumlar bor ekan. Aslida, hayot deganda nimani tushunasiz?

– Hayot deganda umrim davomida orzuimga erishish, o'zimdanda bir iz qoldirishni tushunaman. O'zim baxtsiz bo'lsam ham, o'zgalarni baxtli qilish hayotimda hamma narsadan muhimroq. O'zgalarga yaxshi fazilatlarim bilan o'rnak bo'lsam, deymen. Hayotdagi shiorim: Doim olg'a intilish.

– Ishonch sizning tasavvuringizda qanday aks etadi?

– Men hech kimdan sir berkitmayman. Hatto ota-onamdan ham. Chunki men ularga ishonaman. Kishi qalbida ishonch bo'lmasa juda qiyin. Menimcha, inson hayotda kimgadir ishonib yashashi kerak.

– Qanday insonlarga havas qilasiz?

– Onajonimga havas qilaman.

Katta bo'lsam,

albatta ularga

o'xshab mehribon,

saranjom-sarishta

beka bo'lishni orzu

qilaman. Onamga

o'xshaganim

uchun ham,

o'zimni to'liq baxtli inson

deb hisoblayman.

– Orzularingizga albatta yetishing. Onajoningiz orzulagan farzand bo'lishingizga tilakdoshmiz.

GULYUZ suhbatlashdi.

litseyining 7-sinf o'quvchisi. Musiqaga qiziqadi. Maxsus musiqa maktabiga qatnab, fortepyano chalish sirlarini o'rganmoqda. O'zining aytishicha, bo'sh vaqti umuman yo'q. Orzusi – telejurnalist bo'lish. Mohira ko'plab tengdoshlari kabi tortinchoq emas, aksincha, danganalchi va rostgo'y qiz ekan.

– Mohira, odatda siz tengi qizaloqlarning she'rlarida bolalarcha quvnoqlik, soddalik va samimiylilikni ilg'aymiz. Sizning satrlaringizda esa kuchli his-hayajon ustunroqdek tuyuldi.

– Savolingizga tushundim. Meni uyaltirmaslik uchun «qog'ozga o'rab» savol berdingiz, chamamda. To'g'ri, qattiq hayajonlansam, nimadandir xursand yoki xafa bo'lsamgina she'r yozaman. Sizning savolingiz esa muhabbat haqidagi she'rlaringizga qaratilgan bo'lsa, bunga shunday javob bera olaman. Sevgi o'zimning boshimdan o'tgani uchun muhabbat mavzusidagi she'rlarni ko'proq yozaman.

– Demak, sevgi-muhabbat haqida suhbat olib borishimizga qarshi emassiz. Shunday ekan, sizning qalbingizni rom etgan inson haqida ozgina to'xtalsangiz.

Respublika Xalq ta'limi vazirligining buyrug'iga ko'ra har yili «Nafosat» yosh qalamkashlar tanlovi o'tkazib kelinadi. Iqtidorli o'quvchilarning jajji qalblaridagi iste'dod chechaklarining gullab yashnashida bu tanlovning o'rni beqiyosdir.

Bugungi suhbatdoshimiz respublika «Nafosat» yosh qalamkashlar tanlovi g'olibi, poytaxtimizdagi 155-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Nazokat Mirhabibovadir.

– Nazokat, g'oliblikni qo'lga kiritibsiz. Buning uchun kimdan minnatdorsiz?

– Onamdan. O'qituvchi bo'lganlari bois adabiyotni, she'riyatni sevadilar. Uyimizda badiiy, she'riy kitoblar juda ko'p. Mahallamizda, maktabimizda o'tkaziladigan ko'pgina tadbirlarda boshlovchilik ham qiladilar. Ularning ifodali va ta'sirchan she'r o'qishlariga havas qilib, she'riyat olamiga kirib kelganman.

– Maktabingizda yosh qalamkashlarga e'tibor qanday?

– Iqtidorli o'quvchilarga katta e'tibor berishadi. Har yili oktabr oyida maktabimizda «Yosh qalamkashlar» tanlovi o'tkaziladi. G'olib chiqqan ijodkorlar rag'batlantirib boriladi.

– Bunday tanlovlarda siz ham ishtirok etganmisiz?

– Albatta. 2004-yil o'tkazilgan tanlovda birinchi o'rin sohibasi bo'lish nasib etdi. Tumanda ham, shaharda

– Ilk she'ringizni eslay olasizmi?

– Tunda osmonga boqib, serjilo yulduzlarning harakatlaridan zavqlanib, «Yulduzlar» nomli birinchi she'riy mashqimni yozganman.

– She'rlaringizning birinchi tinglovchisi kim bo'ladi?

– Albatta oyijonim-da.



ham g'oliblikni qo'lga kiritib, 2005-yil may oyida poytaxtimizda o'tkazilgan respublika «Nafosat» yosh qalamkashlar tanlovida ishtirok etdim. Taniqli ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazdik. Talaygina ijodkor tengdoshlarimiz bilan samimiy



bo'lmoqchisiz?

– Xuddi onamdek o'qituvchi bo'lsam, bolalarga nuru ziyo

ulashsam, deymen.

– Tengdoshlaringizga tilaklaringiz.

– Yoshligimiz – oltinga teng damlarimizdir. Uni behuda o'tkazmang, hayotingizning go'zal bo'lishi o'z qo'lingizdadir, – degim keladi.

– Rahmat, Sizga ham ijodiy barkamollik yor bo'lsin.

Kamola EGAMBERDIYEVA suhbatlashdi.

«NAFOSAT»NING G'OLIBI NAZOKAT

do'stlashib ham oldik.

– Qaysi shoirlarning she'rlaridan ilhomlanasiz?

– Zulfiyaxonim, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Umida Abduazimova, Kavsar Turdiyeva va boshqa ijodkorlar she'rlaridan bahra olaman. Ulardan ilhomlanib, yozgan bir qancha she'rlarim «Turkiston», «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida chop etilgan.

– Ulg'aygach kim

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

— Opqoching-a, hash-pash deguncha sizam duppa-durust yozuvchi bo'p qopsiz, Dadaxon sohibdan yuqibdi, — deymen huzur qilib kulib. — U kishidan uzoqroq yuring, bunaqada...

— Shu-da, ishonmaysiz, — astoydil xafa bo'lib, yuzini teskari burdi Boymurod aka.

— Itti yog'ini kecha yoki bugun yemagansiz-ku, axir.

— Ha, yo'o'o', qachonlar bo'p ketdi-yu. Unda Poti-Zuram yangi tug'ilgan, chaqaloq edi. Mana, yigirmaga kirishdi. Yigirma yil bo'p qoptiya, qarang, xuddi kechagidaqa. O'ladigan odam men yuribman hali, ikki o'rtada soppa-sog' yurgan xotinim o'lib ketdi. Rahmatlik yaxshi ayalidi.

Men bahaybatroq xarsang toshga duch kelib, halidan beri bir joyda deysinib yotardim. Peshonamdagi terni sidirib, Boymurod akaning gapini shunchaki safsataga yo'yib, gapni ataylab chuvatdim:

— Yigirma yil narida yegan it yog'ingizni shu it biladi deng? Qoyil, ayting-chi, shu itga qancha yosh berasiz?

— Ko'rinib turibdi, yoshigayam yetmagan, shekilli-a?— talmovsiraydi Boymurod aka.

— U tomonlarini qo'yaturing. Siz hozir bitta savolimga javob bering. Bu it tug'ilmasidan oldingi yigirma yillik narsalarni qattan biladi-a?

— Biladi-da, mulla biladi. Xudo bildiradi. Ana, itingizni ko'ziga qarang. Qo'yib bersangiz xo'pam meni g'ajilasa. Siz bilan munday qaymoqlashib o'tirishimam unga yoqmayapti. Mayli, nima bo'lgandayam urg'ochi ekan, shunisi yaxshi.

— Urg'ochisi yaxshi deng, men bo'lsam itning erkagi yaxshi bo'ladi deb yurarkanman, — deya ish bilan kuymanaman. Boymurod aka «Xudo bildiradi» degandan keyin anovi gapni quvmay ko'nib qo'yaqoldim. Yarim beligacha ochilgan toshni bosqonlab

uqalab olmoqchi bo'ldim.

— Nariroq o'tiring, tosh sachraydi, — dedim Boymurod akaga.

— Shoshmang, — dedi u o'rgatgan bo'lib, — bu toshni qandoq qilib maydalaysiz, axir, onasini qornida kuchga to'lib, semirib yotibdi-ku. Ozgina shabadalab, takasiga oftob tegsin. Ana undan keyin salga o'zi uvalanib ketadi.

— Qoyil, — dedim, suhbatdoshimga tan berib, — tosham odamga o'xsharkan-da, tavba.

— Siz nima deb o'ylovdingiz?

Darvoqe, men nimayam deb o'ylashim mumkin? Suhbatimiz qovushmay qolgan edi. Biri tog'dan, biri bog'dan. Bu kishimning aql-hushini it olib qo'ygan. Odamam shunchalar itparast bo'ladimi? Boymurod aka itning yog'ini yeganman, shuni itingiz bilyapti, deb o'zinikini ma'qullayapti. Men bo'lsam, ishonmayapman. Yana bu kishi itning urg'ochisi ma'qul, deydi. Men erkagi deymen.

Bir zamonlar Sharik degan urg'ochi itimiz bo'lardi. Yiliga uch martadan tug'armidi-yey. G'anijon amakim kuchukchalarning urg'ochisini ko'zi ochilmayoq chuqur qazib, ko'mib tashlardilar. Anchagacha kuchuklarning ingillashi eshitilib, ustilariga tortilgan tuproq ko'tarilib-tushib turardi. Qaniydi Sharik boshqa tug'masa-yu, bu dahshatli, ko'ngilsiz manzarani boshqa ko'rmasam, derdim. Qayda, bolasini ko'mib tashlashsayam tug'averardi. Yana erkagidan urg'ochisi ko'p bo'lardi. Urg'ochi it yaxshi emas degan fikr o'shanda kallamga o'rnashib qolgan. Axir yaxshi bo'lsa tiriklayin ko'milarmidi?! Nahotki, Boymurod akaning poda boqqandagi barcha bo'ribosarlari urg'ochi bo'lgan?!

— Hov birda aytib bergan bo'ribosaringiz ham urg'ochimidi?— so'radim u kishidan.

— Oling-a, hech mahal urg'ochi it bo'ri bosarkanmi? — kuldi Boymurod aka bepisand. — Xo'p gapirasiz-da.... U kishi qo'lini yelkasiga o'tkazib, erinmay, rohatlanib qashindi. Bundan xijolat tortdimi, o'zini oqlab dedi:

— Podachilik qilib yurgan paytlarim yelkammi so'na chaqqanidi-da qiztaloqni tuxumi qop ketganmi, turib-turib yomonam qichishib beradi.

— Urg'ochi it bo'ri bosolmasa, nimaga

Erkin MALIKOV

shunaqamiz-ku, besabrmiz, — qiqirlab kuldi Boymurod aka.

— Mollarni yaxshi bilasiz desam, itlarniyam bilarkansiz, — deya nihoyat u kishiga yon berdim.

— Tavba-a! — deydi Boymurod aka yana nimadandir hayratga tushib. Ha, yana nima bo'ldi, degandek unga qaradim. — Itingizning dumini kesibsiz-u, qulog'ini kesmabsiz-da?

Qarasam, chindanam

Oqtoshning dumi cho'ltoq ekan. Payqamaganimmi-chi? Tavba, ko'rmanman-a? Ammo o'zimni oqlashga harakat qildim.

— Ha endi qulog'i kesilsa, ziyrakligi qatta qoladi?

— Dumi-chi, dumi? — birdan qizishadi Boymurod aka, — dumi kerakmasmi?

— Ha, endi, — deya chaynaldim, — dumning o'rni quloqchalikmas-da!

— Bekor aytibsiz, dumli it chopag'on bo'ladi. Dumsiz it ovga yaramaydi. Keyin bilsayz, itlar burgasini dumi bilan qo'riydi. Dumsiz itlar erta kunda bit bosib, o'lib ketadi. Burgasi talab tashlaydi. Bilmapsiz, dummi ishi ko'p... Xudo bularga bekorga dum bermagan.

— Sigirlar dumi bilan pashsha qo'rishini bilardim. Itlar ham qo'rir ekan-da? — dedim cho'kka tushib ajriq ildizlarini bittalab terar ekanman. Bu la'nati ajriqning tirnoqchasini ham qoldirmay, kuydirish kerak. Buyam urg'ochi itdek ana-mana

deguncha ko'payib ketarkan. Joniyam itning jonidek qattiq. Toshlarini yorib chiqqandan keyin... Shunday qilib mavzuni o'zgartirmoqchi bo'ldim.

— It zoti hech qachon dumi bilan burgasini qo'ri olmaydi. Qanday qilib qo'risin? — deydi Boymurod aka ezmalanib.

— Qo'ying, bas qilaylik. Itdan boshqa gap yo'qmi?

— Bilmasakansiz!

— Nimani?

— Qo'rishini-da.

— Ey, menga bari bir...

— Mana bunday, mulla. Kun qizigan paytda burgalar ja g'imirlab qolishadi. G'imirlashi bilan it oqar suvning bo'yiga boradi-da, asta-sekin suvga tusha boshlaydi. Burgalar suvdan qo'rqib, chovlari orasidan tepaga qarab o'rmlab qoladi. Shundan keyin it tumshug'ini ko'tarib, yelkasini suvga botiradi...

Boymurod aka xuddi itga o'xshab, emaklab ko'rsata boshlaydi, men esa angrayganimcha qotdim.

— Shundan keyin burgalar dum tomonga qarab qochishadi, — deya engashgan ko'yi do'mpayib turgan orqasiga qayrilib qarab qo'ydi Boymurod aka. Men o'xshamagan bu ahvolni chetdan birov kuzatmayaptimi, degan xavotirda u yoq-bu yoqqa qarab qo'ydim.

(Davomi bor).



(yoxud jinlar olami)

uni yaxshi deyapsiz,— mavzuga buraman suhbatdoshimni.

— Urg'ochi it poyloqchilikka yaxshida. Mana siz itingizni tashlab keting. Shattan bir qaricham nari ketmaydi. Urg'ochi it ayal kishiga o'xshab uyparast bo'ladi.

— Ochidan tirishib qolmaydimi? Uyparastligi yaxshi ekan.

— Be, nasibasini siz bilan mendan yaxshi topib yeydi. Sichqon-u kalamushlar to'lib yotibdi. Erkak it turmaydi, sang'ib ketib qoladi. O'zimizam

VATAN MEHRI

Jajjigina qo'linga
Mehrimg qalam tutqazdi.
Yuragimga ismingni
Navniholdek o'tqazdi.
Bugun sening sha'ningga,
Bitayapman ash'orlar.
Ona vatan joningga,
Hech yetmasin ozorlar!



YANGI OY

Yangi oy ham ko'rindi,
Bulut pardasin ochib.
Yerni nurafshon etdi,
Yorug' ziyosin sohib.
Olisda bo'lsa ham u
Mehri bilan ardoqlar.
Ona yerga u hamdam,
Do'stim, deya qarog'lar.

Shahnoza MUHAMMADIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Muborak tumanidagi
1-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi.

KICHKINA KO'MAKCHI

Doston yo'lda ketarkan,
Maktabidan uyiga.
Og'ir sumka ko'targan,
Uchradi keksa ona,
Uzoq bo'lsa ham yo'li,
Yordam sari shoshildi.
O'z ishidan shod dili
Kichkina ko'makchining,
Manzilga yetgach ona,
Uni duo qilardi.
O'sib-ulg'aygin yana,
Ota-onangga rahmat,
Doston manzili tomon,
Xayr, deya yo'l oldi.
Onaxon esa hamon,
Minnatdor boqib qoldi.

Avazxon VALIXONOV,

234-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.

RASMLAR KO'RGAZMASI

Biz Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida istiqomat qilamiz. Ikkimiz ham 5-sinfni tugatdik.

Ayni yozgi ta'til kunlarida tumanimizdagi o'quvchilar ijodiyot markazida faoliyat ko'rsatayotgan «Tasviriy san'at» to'garigiga qatnayapmiz. Bu maskanda 20 dan ziyod to'garagimiz a'zolarining ta'til kunlari mazmunli o'tyapti. To'garak rahbarimiz Malika opa Nurimetova bilan birgalikda shahrimiz bo'ylab sayohatga chiqdik. Ko'rganlarimizni esa qog'ozda aks ettirdik.

Ana shunday rasmlarimizdan ayrimlarini tengdoshlarimiz hukmiga havola qilmoqchimiz. Rasmlarimiz «Tong yulduzi» muxlislariga manzur bo'lsa, benihoya xursand bo'lardik.

Salom bilan Lobar
ALLAMURODOVA va
Sardor BEKNAZAROV.



CHO'MILISH YAXSHI, AMMO...

Quyosh borliqni beayov qizdiryapti. Shunday damlarda soya-salqin joylarda dam olganga, muzdekkina suvda cho'milishga nima yetsin?..



Do'stim Ulug'bek ham cho'milish desa, o'zini tomdan tashlaydi. Tunov kuni yo'lda uni uchratib qolgandim. Qarasam, oyog'ini bint bilan bog'lab olibdi. Sababini so'rasam: «Kecha bolalar bilan anhora cho'milgani borgandik. Suvga kalla tashlamoqchi bo'lgandim, oyog'imni jarohatlab oldim. Shifokorga borgandim u jarohatimni tozalab, bog'lab qo'ydi va bir necha o'rinli maslahatlar ham berdi. Hozir oqava suvlardan turli kasalliklar kelib chiqayotganmish. Cho'milayotganimizda og'iz va burnimizdan kirgan suv orqali turli yuqumli kasalliklarga chalinishimiz mumkin ekan»,— dedi. Do'stim shifokorning maslahatiga faqat o'zi amal qilibgina qolmay, har kuni cho'milishga boradigan o'rtoqlariga ham yetkazibdi.

Yozgi ta'til kunlarini asosan anhorlar va suv havzalarida o'tkazayotgan tengdoshlarim, Ulug'bekning gaplaridan siz ham o'zingizga tegishli xulosalar chiqarib olasiz, degan umiddaman.

Mahmudjon AZIMOV,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
169-maktab o'quvchisi.

Nozimaxon RAHIMOVA

1987-yil, 8-sentabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Oilada uchinchi farzand. Bolaligidan she'rlar mashq qiladi. Poytaxtimizdagi 110-maktabni a'lo baholarga tugatgan. Hazrati Alisher Navoiy asarlaridan tortib, zamonaviy o'zbek she'riyatining iste'dodli vakillari ijodini mutolaa qilishni, g'azallaridan yod olishni yaxshi ko'radi. Shuningdek, qardosh xalqlar she'rlarini tarjima qilishga ham intiladi. Orzusi – jurnalist bo'lish. Maqolalari «Tong yulduzi» va boshqa ommaviy nashrlarda chop etilgan.

QURIMOQGAN OROB DENGIZI BILAN SUHBA

Sohilingda mayin-mayin tosh edi,
Zarrasida yuz minglab quyosh edi.
Tabiatning xuddi mendek yosh edi,
To'lqinlarning qizdayin yuvvosh edi,
Qurimagin, qurimay tur, Oroljon!

Ko'z yoshim-la ko'z kosangni to'ldiray,
Balig'ingga zabon berib kuldiray.
Seni jondan sevimimni bildiray,
Qurimagin, qurimay tur, Oroljon!

Qoragalpoq elin urgan yuragi,
To'lqinlarda quloq otgan bilagi.
Yashash uchun hammadan ham keragi
Qurimagin, qurimay tur, Oroljon!

Tarjima
Nikolay Rubsovdan

AYIQ

O'rmon qorovuli o'q uzgani on
Qarag'ay ortiga berkindi hayvon.
Pahmoq gavyasini yalab o'tgach o'q,
Ayiq ko'zlariga yosh to'ldi liq-liq.

Nechun o'ldirmoqchi bo'ldilar uni,
Ayiq o'ylab sira topmas aybini...
So'ngra kulbasiga u yo'l oldi jim
Alamdan o'kirib yig'lamoq uchun.



ONA TABIAT

Sen go'zalsan onamday,
Bolalaring asalday.
Mevalaring shakarday,
Turgan-bitganing himmat,
Ona tabiat, ona tabiat!

Bo'lg'in shunday har doim,
Qalbing buncha muloyim.
Hayvonlaring o'lmasin,
Giyohlaring so'lmasin,
Bizdan kutasan shafqat
Ona tabiat, ona tabiat!

Bir bolangning nomi gul,
Bir bolang sayroq bulbul.
Tog'ingda kiyiklar o'ynar,
Bog'ingda to'p atirgul.
Sirli kitobsan qat-qat,
Ona tabiat, ona tabiat.

Hayvonlaring semizgina,
Bir-biridan kuchligina.
Laqmagina yo shumgina,
Asalgina, ayyorgina...
Doim omon bo'l faqat
Ona tabiat, ona tabiat!

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 15 652
Buyurtma N: J 1432

Dizayner va sahifalovchi:
Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-63-08
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45